

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.U.Xamidjanov	
Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishda yakkakurash elementlariga ega harakatlari o'yinlardan foydalanish metodlari.....	85
A.A.Parmonov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlili	90
M.A.Tursunboyeva	
Tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini o'qitishning mazmuni tushunchasining lingvodidaktik tavsifi	97
M.I.Boymanova	
Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quvchilar kompetentsiyasini shakllantirish	102
A.Matkarmov	
O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillari (xalqaro baholash tadqiqotlari misolida)	105
N.M.Xodjibolayeva	
Al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari	110
M.Sh.Dehqonova	
Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiysi	114
N.Sayimbetova	
Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari	117
A.Abdullayev	
Jismoniy mashqlar inson "Hayotiy quvvati"ni tiklash vositasi	121
J.Sh.Mamayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish zarurati	125
S.Abdullayev	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kognitiv kompetentligini shakllantirishning pedagogik mazmuni	129
D.O.Djalilova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germenevtik kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati	138
М.М.Азизов	
Что такое нордическая ходьба (nordic walking), финская ходьба, северная ходьба с палками, скандинавская ходьба?	141
L.Z.Xolmurodov	
9-10 yoshdagи bolalarning muvozanat saqlash funksiyasini rivojlantirishning yoshga xos me'yorlari	147
I.M.Saidov	
Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ilmiy tavsifi	151
O.A.Xo'jaqulov	
Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompyetyentlikni rivojlantirishning pyedagogik shart-sharoitlari	155

FALSAFA

A.A.Qambarov	
Abdurauf fitrat ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatining falsafiy tahlili	161
B.B.Namozov	
Movarounnahrda temuriylar davrida tasavvuf ijtimoiy ma'naviy hodisa sifatida	166
M.T.Voxidova	
Yoshlarda barqarorlik va bag'rikenglikni namoyon bo'lishining ijtimoiy-axloqiy jihatlari	172
I.M.Arzimatova	
Ayol rahbarlarning axloqiy va estetik madaniyatini integratsiyalash asosida "Rahbar ayol" portretini shakllantirish vazifalari	176

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI**

**НЕОБХОДИМОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ
АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

**THE NEED TO IMPROVE THE TECHNOLOGY OF DEVELOPING ANALYTICAL
THINKING AMONG FUTURE TEACHERS**

Mamayusupov Jamshid Shoyunus o'g'li¹

¹Farg'ona politexnika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada analitik tafakkur tushunchasi, uning mazmun-mohiyati hamda tarkibiy tuzilishi o'rganilgan. Bugungi kunda analitik tafakkurni rivojlantirishning texnologiyasini takomillashtirish zarurati tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматривается понятие аналитического мышления, его содержание и структура. Сегодня анализируется необходимость совершенствования технологии развития аналитического мышления.

Abstract

The article examines the concept of analytical thinking, its content and structure. Today, the need to improve the technology of developing analytical thinking is analyzed.

Kalit so'zlar: analitik tafakkur, tarkibiy tuzilish, mantiqiy, tanqidiy va analitik fikrlash, takomillashtirish, pedagog.

Ключевые слова: аналитическое мышление, структурная структура, логическое, критическое и аналитическое мышление, совершенствование, педагог.

Key words: analytical thinking, structural structure, logical, critical and analytical thinking, improvement, pedagogue.

KIRISH

Bugungi kunda bo'lajak pedagoglarning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilishi ta'lif texnologiyalarini yaratish va amaliyotdagilarini takomillshatirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Buning uchun esa bo'lajak pedagoglarning tahliliy va tanqidiy fikr yuritish imkoniyatlarini oshirish, unga yo'naltirilgan interfaol ta'lif metodlarini ishlab chiqsh hamda fanlarni o'qitishda fanlararo hamkorlikni yo'liga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirish bugungi murakkab ijtimoiy munosabatlар shakllangan va manfaatlar to'qnashuvi ortib borayotgan sharoitda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda ularning «fikrlash tarzi va tafakkur qilish doirasini o'zgartirish, kengaytirish va unga yangicha yondashuvlar orqali ta'sir ko'rsatish samarali hisoblanadi. Umuman olganda, yuksak tafakkur egasi bo'lism har bir kadrning eng muhim sifati bo'limg'i kerak. Chunki teran tafakkurli mutaxassis muammoni yuzaga kelishini oldindan biladi, vaziyatlarga to'g'ri baho bera oladi» [2], tezkor qaror qabul qila oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turli fanlar doirasida, xususan, falsafa, psixologiya va pedagogika fanlari doirasida analitik tafakkur ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham bu jarayon davom etmoqda. Jumladan, D.Sharipova, O.Musurmonova, M.Quronov, U.Mahkamov, R.Safarova, Sh.Mardonov, D.Ro'ziyeva, N.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, O.Jamoldinova, V.Slastenin, I.Isayev, Y.Shiyanov Z.T.Soliyevalarning ilmiy-tadqiqot ishlariada analitik tafakkurning falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf jtish omillari tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yangi O'zbekistonda bo'lajak pedagoglarning professional tayyorgarligi va intellektual saviyasini xalqaro tendensiyalarga muvofiqlashtirish vazifikasi turibdi. Bunday darajaga esa faqat talabalarni analitik tafakkur qilishga o'rgatish orqaligina erishiladi. Jumladan, bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarlik darajasini ko'tarishning asosi unda analitik tafakkur layoqatini

shakllantirishdadir. Analitik tafakkur qila biladigan shaxsgina kasbiy kompetentlilikka ega mutaxassis bo'la oladi [1].

Bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirish ham ilmiy-nazariy, ham amaliy darajadagi muammo bo'lib, bu ishlab chiqarish va inson faoliyatining boshqa sohalarida puxta bilimli salohiyatli xodimlarga ehtiyoji balandligi bilan bog'liq. Zamonaviy jamiyat nostandard vaziyatlarda mustaqil va mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda qaror qabul qilishga qodir, o'z malakasini doimiy o'stirishga ehtiyoj sezuvchi (faol va tashabbuskor fuqarolar), o'zini rivojlantirib borish hamda o'ttacha imkoniyatlar chegaralarini doimiy bartaraf qilishga tayyor, yuksak ijodiy potensialga ega bo'lgan bilimdon kadrlarga muhtojlik sezadi. Ijtimoiy munosabatlar va o'zgarishlar jamiyatning asosi hisoblanganligi uchun uni rivojlantirish, barqaror ishlashini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi, shu bois, uni zamon ruhiyatiga va o'zgarishlar jarayoniga mos ravishda anglay biladigan kadrlarga har doim ehtiyoj sezildi. Bunday zamonaviy kadrlar ega bo'lishi kerak bo'lgan sifatlardan bir analitik tafakkur qilish qobiliyati hisoblanadi. Chunki analitik tafakkur mutaxassisini vaziyatni har tomonlama tahlil qilish va baho berishga undaydi.

Qay yo'nalishda ish olib borilsa, talabalarda analitik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish samara beradi?

1. Analitik tafakkurni shakllantirish bevosa talabalarning amaliy mutaxassislik faoliyatiga bog'lab fanlararo integratsiya asosida kasbiy amaliyotda ko'p uchraydigan muammolarni yechishga qaratilgan bo'lsa;

2. Bu jarayon samarali yakunlanishini kafolatlaydigan ilg'or talim metodlaridan, usul va vositalardan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali;

3. Muammoli vaziyatlarni yaratish va munozara, baxslar tashkil etish, analitik treninglar o'tkazish, ilmiy tadqiqot loyihalariiga jalgan etish;

4. Talabalarning analitik fikrlash mexanizmini o'zlashtirishlari uchun pedagogik shart-sharoit yaratish, xilma-xil o'quv topshiriplari va vaziyatli keyslardan unumli foydalanish.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda teran tafakkur qilish va shubhalana bilish usulini shakllantirish ham juda muhimdir. Tafakkur voqelikni ongda umumiy tarzda aks ettirish jarayoni bo'lib, u ham ma'lum bir ijodiy faoliykdir. Analitik tafakkur orqali bo'lajak pedagog aniq vaziyatlarda o'zi uchun va kasbiy faoliyati doirasida muhim, qulay va foydali qarorlar qabul qila oladi. Zamonaviy pedagogika bo'lajak pedagoglarga iqtisodiy faktlarni va nazariyalarni yodlatishdan uzoqlashib, bilim berish bilan birga ularni tafakkur qilishga undash va yondashuv berish amaliyotiga o'tmoqda. An'anaviy ma'ruzalar va mashg'ulotlardan ko'ra mustaqil ta'limni, erkin izlanish, qoliplardan chiqqan holda pedagog bilan faqat ma'lum mavzu yuzasidan fikr almashish yoki bahslashish foydali ekanligi namoyon bo'lmoqda. Bu esa nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini ham shakllantiradi. Umuman olganda, bo'lajak pedagoglarning aqliy qobiliyatini o'stirishda falsafiy fanlarning o'rni yuqori ekanligini anglash va ushbu fanlar tajribalaridan pedagogik amaliyotlarda, mashg'ulotlarda foydalanishni yo'lga qo'yish zarurligini keltirib chiqaradi.

Buning uchun esa, bo'lajak pedagoglarda kreativ, tanqidiy, tahliliy va analitik fikrlashga ko'proq undash talab etiladi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun oliy ta'limda quyidagilarga alohida e'tibor qartish lozim:

Birinchidan, bo'lajak pedagoglarni ijodiy fikrlashga o'rgatish. Buning uchun ma'ruza va seminar mashg'ulotlarining foydali tomonlaridan foydalanib qolish lozim. Misol uchun, «seminarda talabaning faoliyot ko'rsatish imkoniyati keng bo'ladi, ma'ruzada esa asosan ma'ruzachi nutqini tinglab, informatsiya o'zlashtirib boriladi. Ma'ruzaning asosiy vazifasi iqtisodiy bilim va tajribalarni talabaga rejali ravishda yetkazib berishdan iborat ekanligini hisobga olsak, seminarning talaba ijodiy fikrlashini o'stirishdagi o'rni yaqqolroq ko'rindi» [4], Zero, ma'ruzada pedagog o'zi o'qigan ilmiy va iqtisodiy asarlar, o'z shaxsiy hayotida o'zi ko'rgan kechirganlaridan foydalanib iqtisodiy analitik tafakkurini talabaga yetkazishga intilsa seminarda, aksincha, talaba o'sha tanish mavzu bo'yicha mustaqil fikr yuritib, o'z shaxsiy analitik mulohazalari, misollari, faktologik materiallari, isbot dalillari bilan qatnashmog'i lozim.

Ikkinchidan, bo'lajak pedagoglarda notiqlik ko'nikmasini rivojlantirish. Chunki analitik tafakkur nutq bilan parallel rivojlanib boradi. Nutqi yaxshi rivojlanmagan talabaning analitik tafakkuri ham yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Analitik tafakkurni rivojlantirish uchun esa, bilim va mushohadakorlik bilan birga bu borada fikr almashish, nutqini yetkazib, tushuntirib berishga harakat qilish talab etiladi. Shu bois bo'lajak pedagoglarda kuchli notiqlik ko'nikmlarini rivojlantirish

PEDAGOGIKA

orgali ularning analitik tafakkurini oshirish mumkinligi kelib chiqadi. Buning uchun oliv ta'limgagi seminar va amaliy mashg'ulotlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. «Bu vazifani amalga oshirishning mushkulligi shundaki, talaba ko'pincha o'z nutqining yomonligi va nazariy materialni o'zlashtirishi qiyinligi oqibatida gapirishga qynaladi. Ularni, odatda, seminarda fikr bildirishga majburlab bo'lmaydi. Bunda o'qituvchi yaxshi psixologik, ta'sir ko'rsatsh qobiliyatiga ega bo'lishi shart bo'ladi. Chunki, shunday tortinchoq talabalar bo'ladiki, nazariy materialni yaxshi anglab tursalar hamki, gapirib berolmaydilar. Bugungi sharoitda pedagogdan juda katta sabr toqat talab qilinadiki, bu oliv dargohiga yetib kelguniga qadar yoshlar tarbiyasida bajarishga ulgurilmagan ko'p ishlarni, jumladan, unda erkin fikrlash ko'nikmasini vujudga keltirishini hosil qilib bo'lmaydi. Vaholanki, bu ishlarni bajarmasdan turib, oliv ta'limga bo'lajak mutaxassislarda analitik tafakkurni rivojlantirib ham bo'lmaydi. Ko'pincha, nutqi yaxshi talabalarda darsga yozib kelingan materialni qiroat bilan o'qib berish yomon odati ham shakllangan bo'ladi» [4]. Bu odatni ham tark etishga o'rgatish kerak. Aks holda, talabada fikrini bayon etish u yoqda tursin, analitik fikrlash ko'nikmasini ham hosil kilib bo'lmaydi. Chunki qiroatbozlikka o'rganib qolgan kishi tahsiliy mushohada u yoqda tursin, oddiy chuqr mulohaza yuritishga ham qodir bo'lmaydi. Bundan talabalar fikrni o'qib olish, mustaqil fikrlash, uqqanlarini bayon etish, o'z shaxsiy fikrini bayon etish darajasiga ko'tarilishi juda qiyin. Zero, ular bir qolipdagi, kimningdir tayyor gaplarini takrorlashga o'rganib qolganlar.

Analitik tafakkur uchun shart-sharoit, zamin yaratish uchun pedagogning o'zi analitik tafakkurga ega bo'lishi bilan birga talabalarga darslikdan tashqari yangi va muammoli materialni ham berib borishi kerak. Bu analitik tafakkurni rivojlantirishning birinchi bosqichini tashkil etadi.

Ikkinchi bosqichda pedagog talabani shu yangi material ustida fikrlab ko'rish va unga nisbatan o'z munosabatini bildirishga taklif qiladi. Bunda fikrlab ko'rish uchun muayyan vaqt ajratish kerak. Bunda talabalar orasida jonli fikr almashinuv jarayoni bo'lishiga yo'l qo'yish zarur.

Uchinchi bosqichda bo'lajak pedagoglarning muhokama etilgan material yuzasidan baholovchi, xulosaviy fikrlarni eshitish. Bunda ular fikrlarining asoslanganligi va aniq bo'lishini talab qilish zarur.

Ayni paytda bo'lajak pedagoglarda muayyan masalalar yechimiga nisbatan intuitiv ishonch, e'tiqod mavjud bo'lishi, lekin bu tafakkurda yuzaga chiqmasligi ham mumkin. Bunday hollarda pedagog yo'nalishining intuitiv ishonchini ratsional asoslashlanishiga yordam berishi, yoki masalaning o'zidan kelib chiqqan holda unga hozircha o'z fikrini ifodalamasdan, chetda turishiga ruxsat berishi ham mumkin. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda juda samarali bo'lgan 8 ta pedagogik talab mavjud [4]. Ularga:

Talabaga informatsiyani kiritib qo'yish kerak bo'lgan obyekt (idish) sifatida emas, balki shaxs (subyekt) sifatida, ya'ni shakllangan, o'z fikr va mulohazalariga, e'tiqodi, qarashlari, intilishlari, irodasi, xarakteriga ega bo'lgan subyekt sifatida qarash. Mazkur talab o'qituvchi o'z qarashlarini talabaning o'zida mustaqil shakllanib bo'lgan dunyoqarashning o'rniga, uni yo'q deb hisoblab yoki o'chirib tashlab emas, balki uning uchun qadrli bo'lgan qarashlar va ta'lomotlar bilan muvofiqlashuvini nazarda tutib, unga payvand qilish tarzida ish yuritishini taqozo etadi. Bu bor sharoitdan iloji boricha yaxshi foydalanishga harakat qilish talabidir. Pedagogning talaba bilan baham ko'rmoqchi bo'lgan bilimlari uning o'ziga yaxshi tushunarli va ma'qul kelgan bo'lishi, bir so'z bilan aytganda uning o'zidan kelib chiqadigan bo'lishi zarur.

Pedagogning o'zi ham qandaydir yot informatsiyani talabaga uzatuvchi oddiy bir avtomat (radio, kompyuter, teleekran va h.k.) emas, balki o'zi o'tadigan dars mavzulari bo'yicha o'z fikr va qarashlariga ega bo'lgan, o'z g'oya va maqsadlarini mustaqil shakllantirish, ifodalay oladigan va analitik tafakkuri kuchli bo'lgan erkin va ijodkor shaxs bo'lishi talabidir. Pedagogning talabalarga bermoqchi bo'lgan bilim va axboroti ko'pchilikni qiziqtiradigan, jalb etadigan ravishda tashkillanishi kerakligini bildiradi. Pedagog o'z talabalariga dars jarayonida o'zi bilan erkin fikr almashinuv, muloqot qilish uchun imkoniyat yaratishini taqozo etadi. Ya'ni o'qituvchi o'z talabalarining o'ziga savollar bilan erkin murojaat qilishlari, kerak bo'lsa, o'z fikr va mulohazalarini bildirishlari uchun sharoit yaratishi va shunga rag'batlantirishi kerak.

Pedagog dars materiallarini talabalarning o'zlashtirishlari uchun tegishli obyektiv va subyektiv sharoitlari mavjudligini hisobga olgan holda tanlashi va tashkillashi maqsadga muvofiq. Pedagog o'ziga talaba ko'zi bilan qaray bilishi, ular orqali o'z nuqsonlarini payqashdan qo'rmasligi va, kerak bo'lsa, o'zini o'zgartirishi joiz. Buning uchun u har bir talabani shaxs sifatida ko'ra olishi, ularning izzat nafsiga tegmaslikha harakat qilishi zarur.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda pedagogik jarayon imkoniyatlardan unumli va oqilona foydalanishi ham lozim. Bo'lajak pedagog darsda berilgan mavzuning tuzilishini tushunib yetsagina, bilimlarni haqiqatdan o'zlashtirib olishi mumkin. «Topshiriqlarda o'zlashtirilgan materialdan to'g'ri foydalanish, o'tilayotgan mavzu bo'yicha o'zlashtirishning muhim ko'rsatkichidir. Ularga dars davomida nafaqat yangi bilimlarni berish bilan kifoyalanib qolmasdan, ularda ilm olish ehtiyojlarini (motiv) kuchaytirish, turli bilim manbalari bilan ishlashni, ularga o'z harakatlarini rejalashtirishni yo'lga qo'yishni, bilish jarayoni harakatlari, operatsiyalari haqida ma'lumot berishni, fikrni bir joyga to'play bilishni, maqsadni yo'naltira bilish, intizomllilikka, erishilgan natijani to'g'ri baholay olishga o'rgatish zarurdir» [3].

XULOSA

Hozirgi davrda tayyorlangan malakali kadrlar zahirasi zamonaviy ijtimoiy vaziyatlar va ular asosida shakllangan ijtimoiy muammolarga tayyorlik talabiga javob bermaydi. Bunday holat o'z navbatida, oliv o'quv yurtlari kadrlar tayyorlash tizimi va mehnat bozori munosabatlariga innovatsiyalarni tadbiq etishini talab qiladi. Bugungi pedagoglarning analitik tafakkuri kuchli emasligi ularni vaziyatga moslasha olmasligi, faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolganligi, olgan bilimlarini amaliyatda qo'llay olmasliklari, keng dunyoqarashga va teran tafakkurga ega emasliklari bilan baholanmoqda. Jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlar mazmuni, bo'lajak pedagoglar tayyorlashga, ulardan nostandart muammolarni hal qila olish imkoniyatlari mavjudligiga, muntazam sur'atda kasbiy malakasini oshirishga, ijtimoiy o'zgarishlarga tayyor bo'lishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Richard J. Hauer Jr. Psychology of Intelligence analysis. Jr, published by Center for the Study of Intelligence, 1999. ISBN 1 929 667-00-0.
2. Фозиев Э. Тафаккур психологияси. Тошкент.: Ўқитувчи.-1990. –Б. 26.
3. Мирқосимова, М. М. (2020) Талабаларда аналитик тафаккурни ривожлантириш технологияси. Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2 : Iss. 4 , Article 89.
4. Фалсафа фанини ўқитиш методикаси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2001. –Б. 78.